O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Жиззах вилояти

130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov ko‘chasi, 1-uy, Tel. +99878 771-70-15, Faks: +99878 771-70-15, E-mail: jizzah_expertiza@mail.ru www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Tasdiqlandi
Direktor: Kulmuradov Yusup Baxriyevich
Sana:13-12-2021 yil

Yig'ma ekspert xulosasi № 26591

Obyekt nomi «Ishchi loyiha bo'yicha: Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani "Toqchilik" MFY da (Tadbirkorlik subektlari tomonidan) qurilayotgan 7 dona 5 qavatli 1 yo'lakli 2 va 3 xonali 20 xonadonli uy-joylarning ichimlik suvi tarmog‘i qurilishi»

Buyurtmachi – "Qishloq qurilish invest" MChJ IK Jizzax viloyat filiali
Bosh loyihachi - "QISHLOQQURILISHLOYIHA" MChJ, AL-001087
Litsenziya O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi 2020.06.29
Moliyalashtirish manbai - Islom taraqqiyot banki (ITB)
Bosh pudratchi – Tender tanlovi asosida.
Qurilish turi Yangi qurilish.
Murojaat raqami: № 24187

1. Loyihalash uchun asos

1. Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani hokimining 2021 yil 26 martdagi №631-sonli qarori;

2. "Loyixa topshirig‘i" - Jizzax viloyat qurilish bosh boshqarmasi bilan kelishilgan, "Qishloq qurilish invest" MChJ IK Jizzax viloyat filiali tomonidan tasdiqlangan;

3. "Ozsuvta'minot" AJ "Jizzax suv ta'minoti" MChJ tomonidan 2021 yil 12 aprelda berilgan №05/379 sonli "Texnik Shart";

4. "Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani "Toqchilik" MFYda qurilayotgan 3 ta 5 qavatli uy-joylarning qurilishi" ob'ekti bo‘yicha "O'ZGASHKLITI" DUK tomonidan bajarilgan - Qurilish maydonining muhandislikgeologik tadqiqotlari natijalari to‘g‘risidagi xulosa;

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

1. Ishchi loyixani ishlab chiqish bosqichidagi loyixaviy xujjatlar;

2. Tarmoq muxandisligi;

3. Smeta xujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

"Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani "Toqchilik" MFY da (Tadbirkorlik subektlari tomonidan) qurilayotgan 7 dona 5 qavatli 1 yo'lakli 2 va 3 xonali 20 xonadonli uy-joylarning ichimlik suvi tarmog‘i qurilishi" ishchi loyihasini amalga oshirishdan asosiy maqsad aholini toza ishimlik suvi bilan ta'minlashdan iborat.

Qurilish maydoning xususiyatlari:

- Qurilish va iqlim zonasi – II;

- Tashqi havoning taxminiy qishki harorati – 19 g S;

- Shamolning standart bosimi – 0,38 kPa;

- Standart qor yuki – 0,50 kPa;

- Tuproq sharoitini hisobga olgan holda qurilish maydonining seysmikligi – 8 ball.

Dumaloq shaklli suv ta’minoti quduqlarining konstruktiv yechimlari:

Yig‘ma temir betondan yasalgan suv ta’minoti quduqlari tag qism, ishchi qism, orayopma, tayanch halqasi va lyukdan iborat.

Diametri 1500mm bo‘lgan quduqlarining ishchi qism balandligi 1500mm ni tashkil etadi. Quduqlar soni 9 dona.

Barcha yig‘ma temirbeton elimentlar M100 markali sement/qumli qorishma yordamida o‘rnatiladi. Suv ta’minoti quduqlarining yerga tegib turgan tashqi yuzasi qaynoq bitum yordamida 2 marta surtilib himoya hosil qilinadi. Quduqlar atrofiga qalinligi 50mm, eni 1.0m bo‘lgan beton to‘shama yotqiziladi.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

Oqava suvning ulanish nuqtasi "JIZZAX SUV TA‘MINOTI" MChJ tomonidan 12.04.2021 yil da berilgan №05/379-sonli "Texnik Shart" ga ko'ra "Toqchilik" MFY hududidagi mavjud diametri D=160mm bo'lgan ichimlik suvi tarmog'i hisoblanadi.

"Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani "Toqchilik" MFY da (Tadbirkorlik subektlari tomonidan) qurilayotgan 7 dona 5 qavatli 1 yo'lakli 2 va 3 xonali 20 xonadonli uy-joylarning ichimlik suvi tarmog‘i qurilishi" ishchi loyihasining muhandislik ta'minoti qismida quyidagi asosiy ish turlari ko'zda tutilgan:

- Quvur yo'tqizish uchun xandaq qazish;

- Polietilen quvurlarda ichimlik suvi tarmog'i tortish;

- Ichimlik suvi quduqlari o'rnatish;

- Yo'llar bilan kesishgan joylarda kojux(futlyar)lar o'rnatish;

Loyixada keltirilgan oqava suv quvurlari:

Polietilen quvur SDR 17.6 110x6.6 mm – 327.0 p/m.

Polietilen quvur SDR 17.6 63x3.8 mm – 35.0 p/m.

Loyixada keltirilgan kojuxlar (futlyar):

Po'lat quvur ∅219x5,0 mm – 20.0 p/m.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

1. Buyurtmachi loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan va "Jizzax suv ta'minoti" MChJ bilan kelishishi va Davlat ekologik ekspertizasining xulosasini olishi lozim;

2. "Jizzax suv ta’minoti" MChJ Sh.Rashidov tuman filialining 2021 yil 16 iyuldagi №01-134-sonli, Jizzax "Suvoqova" DUK Sh.Rashidov tuman filialining 2021-yil 9-avgustdagi №01-156-sonli, 2021-yil 8-yuldagi №01-125-sonli, 2021-yil 8-yuldagi №01-126-sonli texnik shartlariga asosan ob’ektning kirish joyida D=20

mm suv sarfini o‘lchash uskunasi (vodomer) o‘rnatilishi tavsiya etiladi. Oqava suv (kanalizatsiya)tarmog‘iga ulanish xududiy DSENM va tabiatni muxofaza qilish tashkilotlari bilan kelishilgan xolda amalga oshirilsin. Loyixa tashkiloti tomonidan tarmoqga ulanish loyixa jarayonida joyida o‘rganilsin.

6. Ekspertiza natijalari.

1. Ishchi loyiha ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

2. Ob’ektning qurilish narxi **“**Qurilish iqtisodiyoti instituti” MChJ tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi kataloglar va amaldagi (haqiqiy, bozor sharoitlariga ko‘ra) narxlarni xisobga olgan holda ishlab chiqilgan va ekspertizaga taqdim qilingan.

Smeta hujjatlarini ko‘rib chiqish jarayonida quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

1. Elektr payvandlangan po'lat quvurlar (Трубы стальные электросварные) dn 219x5,0mm (m) – 342 273 so‘m ko‘rsatilgan bo‘lib, tekshirish natijasida 326 948 so‘m qabul qilinishiga taklif berildi.

Buyurtmachi tomonidan smeta qiymati 15% QQS bilan birga **129 892,825** ming so‘m taqdim etilgan. Smeta hujjatlarini o‘rganish jarayonida ba’zi qurilish materiallari narxi pasaytirilishi xisobiga – **430,695** ming so‘mga kamaytirildi.

3. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "**Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani Toqchilik MFY da (Tadbirkorlik subektlari tomonidan) qurilayotgan uy-joylarning ichimlik suvi tarmog‘i qurilishi**" ishchi loyihasi bo‘yicha tayyorlangan smeta hujjatlarini kelgusida kelishish hamda tasdiqlash uchun 15 % QQS bilan hisoblaganda umumiy miqdorda **129 462,130** ming so‘m tavsiya etiladi.

Shu jumladan:

– qurilish montaj ishlari (QMI) – **112 216,672** ming so‘mni,

– qurilish vaqtida qurilish obektini sug‘urtalashga sarflangan xarajatlar(0,32%) – **359,093** ming so‘m;

– qo‘shimcha qiymat solig‘i 15% – **16 886,365** ming so‘mni tashkil etgan.

Ishchi quruvchilarning o‘rtacha bir soatlik ish xaqi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ chiqarayotgan 2021–yil II chorak(kvartal) katalog asosida **10 097,96 x 1,12 = 11 309,7152** so‘m ijtimoiy sug‘urtaga ajratma 12 % qabul qilingan. (Ijtimoiy sug‘urtaga ajratma foizi pudratchining haqiqiy harajatlari bo‘yicha buxgalteriya hujjatlari asosida amalga oshiriladi).

Ta’kidlash joizki: a) Smeta hujjatlarida nazarda tutilgan asosiy qurilish materiallari va uskuna (jixoz) larni xarid qilish tartibi belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilishi va asoslovchi xujjatlarga tayanilishi lozim. “Narxlar kelishuvi” to‘g‘risidagi bayonnoma ko‘rsatilgan narxlarning haqqoniyli buyurtmachi va pudratchi tashkilot, hamda o‘zaro hisob-kitob qilishda ShNQ 4.01.16-09 qoidalariga amal qilgan holda eng maqbul narxlar qabul qilinishi nazorati buyurtmachi tashkilot zimmasida qoladi.

b) Buyurtmachiga loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin quyidagilarni qayta ko‘rib chiqish tavsiya etiladi:

– pudratchi boshqa xarajatlarining aniq sarfi;

– "Qurilishning bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari" ShNK 4.01.16-09 asosida qurilish materiallari (buyumlar, konstruksiyalar) va uskunalarning ishlab chiqaruvchi zavodlarning ulgurji narxlarini o‘z ichiga olgan hududiy bozorda haqiqatda shakllangan narxlari, shuningdek bevosita ishlab chiqaruvchilardan (yetkazib beruvchi), qurilish materiallari birja va yarmarkalarining byulletenlari, qurilish materiallari va uskunalari yetkazib beruvchi tashkilotlarning narxlarining eng maqbullaridan olinishini;

– ish haqi xarajatlarining pudratchi tashkilotning o‘tgan 12 oydagi o‘rtacha oylik ish haqi darajasidan kelib

chiqqan holda bir odam/soat ish haqidan olinganligi.

4. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003–yildagi №261 qarori bilan tasdiqlangan “Qurilish ob’ektlari narxini joriy shartnoma narxlarida aniqlash tartibi to‘g‘risida vaqtinchalik qoidalar”ga va ShNK 4.01.16.09 ga binoan qurilishning narxi tavsiyaviydir. Tavsiya etilgan bahoni qabul qilish qarorini buyurtmachi va pudratchi birgalikda qabul qiladilar (ShNQ4.01.16-09, 6-bob. 6.4-bandi).

6. O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari xamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 17.09.2021 yildagi №579-sonli qarorining 4-bandiga asosan "Qurilishi markazlashtirilgan manba’lar hisobiga moliyalashtiriladigan ob’ektlarning boshlang‘ich qiymati Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy saytiga (stat.uz) joylashtirib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizimlar xizmati uchun o‘rtacha narxlar hamda o‘rtacha ish haqi qo‘rsatgichlaridan foydalangan xolda shakllantiriladi" xamda mazkur qarorning 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaxarsozlik xujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyixa yechimlari bo‘yicha buyurtmachi xamda loyiha tashkiloti javobgardir".

7. Xulosalar.

1. "**Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani "Toqchilik" MFY da (Tadbirkorlik subektlari tomonidan) qurilayotgan 7 dona 5 qavatli 1 yo'lakli 2 va 3 xonali 20 xonadonli uy-joylarning ichimlik suvi tarmog‘i qurilishi**" ishchi loyiha kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Bosh mutaxassis: DJURAEV ANVAR LAPASOVICH